



NEW CONSTITUTIONAL REFORMS AND THE “UZBEKISTAN – 2030” MODEL: INTERCONNECTED RELATIONSHIPS

Tastanbekova Gulchehra Sadanovna,
Associate Professor

Yuldoshov Azamatjon Ilkhomjon ugli
Student, Law (Jurisprudence) Department,
Tashkent International University

Abstract

This article provides an in-depth analysis of the logical interconnection and systemic nature between the updated Constitution of the Republic of Uzbekistan and the “Uzbekistan – 2030” strategy. Constitutional reforms are interpreted not merely as an update of a legal document, but as a strategic foundation that defines the country’s long-term development model. The main focus of the article is to reveal the extent to which the principles of a “social state,” “human dignity,” “rule of law,” and “secular state,” enshrined in the new version of the Basic Law, are aligned with the priority goals of the “Uzbekistan – 2030” strategy. The study thoroughly examines issues related to the development of human capital, particularly guarantees of access to quality education and healthcare services, economic freedoms, and the legal protection of business entities. In addition, the article presents a comparative analysis of the constitutional foundations of environmental sustainability and the transition to a “green economy” in relation to strategic objectives. Within this analysis, the Constitution is interpreted as a legal roadmap for societal development, while the Strategy is viewed as a practical mechanism for achieving the goals outlined in that roadmap. The central idea of the article is that the new constitutional norms serve not only as a legal basis for the successful implementation of the “Uzbekistan – 2030” model, but also as a key guarantee of sustainable development. The study concludes with practical recommendations and findings aimed at fully harmonizing national



legislation with the updated Constitution and the objectives of the Strategy, enhancing the accountability of state bodies, and strengthening Uzbekistan's position in international rankings. This work is intended for legal scholars, students, and the general public, and contributes to a deeper understanding of the essence of ongoing reforms in the country.

Keywords: Republic of Uzbekistan, Constitution, constitutional reform, “Uzbekistan – 2030,” human dignity, secular state, rule of law, social state, normative legal acts.

YANGI KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR VA O‘ZBEKISTON - 2030 MODELI: O‘ZARO UZVIY ALOQALAR

Tastanbekova Gulchexra Sadanovna,
dotsent

Yo‘ldoshov Azamatjon Ilxomjon o‘g‘li,
Tashkent Xalqaro universiteti
yurispurdensiya yo‘nalish talabasi

Anontatsiya:

Mazkur maqolada yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi o‘rtasidagi o‘zaro mantiqiy bog‘liqlik va tizimli ekanligi chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, konstitutsiyaviy islohotlarni shunchaki huquqiy hujjatni yangilash emas, balki mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot modelini belgilab beruvchi strategik poydevor sifatida baholandi. Maqolaning asosiy mazmuni yangi tahrirdagi Bosh qonunimizda mustahkamlangan “ijtimoiy davlat”, “inson qadri” “huquqiy davlat” va “dunyoviy davlat” tamoyillarining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi ustuvor maqsadlar bilan qanchalik hamohang ekanligini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqot davomida inson kapitalini rivojlantirish, xususan, sifatli ta‘lim va tibbiy xizmatdan foydalanish kafolatlari, iqtisodiy erkinliklar hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasi kabi masalalar atroflicha ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ekologik barqarorlik va “yashil iqtisodiyot”ga



o‘tish jarayonlarining konstitutsiyaviy asoslari strategik vazifalar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Ushbu tahlilda, Konstitutsiya — bu jamiyat taraqqiyotining huquqiy xaritasi bo‘lsa, Strategiya — bu xaritada maqsadlarga erishishning amaliy mexanizm sifatida talqin etildi. Maqolada ilgari surilgan asosiy g‘oya shundan iboratki, yangi konstitutsiyaviy normalar “O‘zbekiston – 2030” modelini muvaffaqiyatli amalga oshirishda nafaqat huquqiy asos, balki barqaror rivojlanishning yagona kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot yakunida milliy qonunchilikni yangilangan Konstitutsiya va Strategiya maqsadlariga to‘liq muvofiqlashtirish, davlat organlarining mas’uliyatini oshirish hamda xalqaro reytinglarda O‘zbekistonning o‘rnini mustahkamlash bo‘yicha amaliy taklif va xulosalar shakllantirilgan. Mazkur ish huquqshunoslar, talabalar va jamoatchilik uchun mo‘ljallangan bo‘lib, mamlakatdagi islohotlar mazmun-mohiyatini chuqur anglashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi, Konstitutsiya, konstitutsiyaviy islohot, O‘zbekiston – 2030, inson qadri, dunyoviy davlat, huquqiy davlat, ijtimoiy davlat, normativ-huquqiy hujjatlar.

НОВЫЕ КОНСТИТУЦИОННЫЕ РЕФОРМЫ И МОДЕЛЬ «УЗБЕКИСТАН – 2030»: ВЗАИМОСВЯЗАННЫЕ АСПЕКТЫ

Тастанбекова Гулчехра Садановна,

доцент

Йулдошов Азаматжон Илхомжон угли

Студент по направления «Юриспруденция»,

Ташкентский международный университет

Аннотация:

В данной статье проводится глубокий анализ логической взаимосвязи и системного характера обновлённой Конституции Республики Узбекистан и стратегии «Узбекистан – 2030». Также конституционные реформы рассматриваются не просто как обновление правового документа, а как стратегическая основа, определяющая долгосрочную модель развития страны. Основное содержание статьи направлено на раскрытие степени



согласованности принципов «социального государства», «ценности человека», «правового государства» и «светского государства», закреплённых в новой редакции Основного закона, с приоритетными целями стратегии «Узбекистан – 2030». В ходе исследования подробно рассматриваются вопросы развития человеческого капитала, в частности гарантии доступа к качественному образованию и медицинским услугам, экономические свободы, а также правовая защита субъектов предпринимательства. Кроме того, в статье проводится сравнительный анализ конституционных основ экологической устойчивости и процессов перехода к «зелёной экономике» со стратегическими задачами. В данном анализе Конституция трактуется как правовая карта развития общества, а Стратегия — как практический механизм достижения целей, обозначенных на этой карте. Основная идея статьи заключается в том, что новые конституционные нормы служат не только правовой основой успешной реализации модели «Узбекистан – 2030», но и выступают единственной гарантией устойчивого развития. В заключении исследования сформулированы практические предложения и выводы по полному согласованию национального законодательства с обновлённой Конституцией и целями Стратегии, повышению ответственности государственных органов, а также укреплению позиций Узбекистана в международных рейтингах. Данная работа предназначена для юристов, студентов и широкой общественности и способствует более глубокому пониманию сущности проводимых в стране реформ.

Ключевые слова: Республика Узбекистан, Конституция, конституционная реформа, «Узбекистан – 2030», ценность человека, светское государство, правовое государство, социальное государство, нормативно-правовые акты.

Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan global dunyoda har bir davlat o‘zining uzoq muddatli rivojlanish nuqtasini belgilab olishda mustahkam huquqiy va strategik asoslarga tayanadi. O‘zbekiston Respublikasi uchun bunday asoslarning yangi bosqichi 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya hamda mamlakatning yaqin kelajakdagi taraqqiyot yo‘lini belgilab beruvchi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida o‘z ifodasini topadi. Mazkur ikki hujjat shunchaki qonunchilik tizimini yangilash uchun emas, balki mamlakatning



siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy darajasini tubdan isloh qilishga qaratilgan ustuvor reja hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi mamlakatda “Inson qadri uchun” tamoyilini oliy darajaga ko‘tardi va davlatning fuqarolar oldidagi mas’uliyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Keeling inson huquqlari tushunchasiga ta’rif beramiz, Professor A.X. Saidov ta’kidlaganidek, “Inson huquqlari - butun insoniyat intilishlari, orzu-umidlarini o‘zida jamlagan keng qamrovli tushunchadir. Insoniyat o‘z tarixiy rivojlanishi jarayonida inson huquqlariga oid qonunchilik tizimini yaratgan. Inson huquqlari to‘g‘risida qonunchilik inson va fuqaro huquqlari va erkinliklari haqidagi qonunlar majmuidir. Bu qonunlar qatoriga inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hujjatlar va milliy qonunlar kiradi”.¹ Shu tushunchadan kelib chiqqan holda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ushbu konstitutsiyaviy normalarni hayotga tatbiq etishning aniq mexanizmlari, muddatlari va ko‘rsatkichlarini belgilab berdi. Strategiyada ko‘zda tutilgan 100 ta ustuvor maqsadning har biri yangilangan Konstitutsiyadagi aniq bir norma yoki tamoyil bilan bevosita bog‘langandir. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, unda konstitutsiyaviy islohotlar va strategik rejalashtirishning o‘zaro uyg‘unligi tizimli ravishda tahlil qilindi. Konstitutsiya jamiyat taraqqiyotining huquqiy kafolati sifatida namoyon bo‘lsa, Strategiya ushbu taraqqiyotga erishishning amaliy yo‘l xaritasi vazifasini o‘taydi. Ularning o‘zaro uzviyligini o‘rganish nafaqat huquqiy hujjat, balki davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining hayotiyiligini ta’lim sohasidagi yuqori ko‘rsatkichlar misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Bu boradagi islohotlarning fundamental asosi yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida o‘z aksini topgan bo‘lib, ya’ni “Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi. Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim

¹ Inson huquqlari. Darslik. –T.: Adolat, 1997. – B.6.



davlat nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi.”² Aynan mana shu konstitutsiyaviy norma mamlakatda xususiy ta'lim sektorining kengayishiga huquqiy “yashil chiroq” bo'lib xizmat qilmoqda. Strategiyada umumiy o'rta ta'lim tizimida nodavlat sektor ulushini 2030-yilga qadar 10 foizga yetkazish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Statistika tahlili shuni ko'rsatadiki, 2022/2023-o'quv yili boshida bunday maktablar soni 194 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023/2024-o'quv yiliga kelib bu ko'rsatkich 293 taga yetdi. 2025-yil holatiga ko'ra, tizimda nodavlat maktablar ulushi 6,3 foizni tashkil etmoqda. Bu esa ta'limda raqobat muhitini shakllantirish va sifatni oshirish bo'yicha belgilangan strategik maqsad sari izchil borilayotganidan dalolat beradi.

Konstitutsiyaning 50-moddasiga binoan, davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 51-moddasiga ko'ra, ”Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli”³. Ushbu konstitutsiyaviy kafolatlar natijasida “O'zbekiston – 2030” strategiyasining 7-maqсадida yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish vazifasi qo'yilgan edi. Natijalar kutilganidan ham samaraliroq bo'lmoqda:

- 2023-yilda qamrov darajasi 45,9 foiz bo'lgan bo'lsa;
- 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 47,7 foizga ko'tarildi.

Milliy statistika qo'mitasining 2024-2025-o'quv yili boshidagi ma'lumotlariga ko'ra, 18-23 yoshdagi aholini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 47,7 foizga yetgani, strategik maqsadga belgilangan muddatdan ancha oldin erishilayotganini ko'rsatadi. Bu esa Konstitutsiyaning 50-moddasida belgilangan ta'lim tizimini rivojlantirish burchi Strategiya doirasida muvaffaqiyatli bajarilayotganini isbotlovchi muhim omildir.

Islahotlarning navbatdagi muhim yo'nalishi — bu fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini yaratishdir. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ilk bor Advokatura

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 50-modda

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 51-modda



instituti alohida bob (XXIV bob, 141-142-moddalar) sifatida mustahkamlangani ushbu sohaning davlat va jamiyat hayotidagi nufuzi naqadar yuksalغانidan dalolat beradi. Konstitutsiyaviy darajada advokaturaning mustaqilligi va uning faoliyatiga aralashmaslik kafolatlarining belgilanishi — “O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi sud-huquq sohasidagi maqsadlar bilan uzviy bog‘liqdir. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 88-maqsadida advokatura institutini tubdan rivojlantirish va uning salohiyatini oshirish ko‘zda tutilgan. Strategiyaning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida har 100 ming nafar aholiga to‘g‘ri keladigan advokatlar sonini 25 nafarga yetkazish vazifasi belgilangan. Bu ko‘rsatkich nafaqat miqdoriy o‘shishni, balki har bir fuqaroning malakali yuridik yordam olish imkoniyatini kengaytirishni anglatadi.

**Ўзбекистон Республикаси Адвокатлар палатасининг 2023 йил 1 январь ҳолатига
кўра адвокатлик тузилмалари ва адвокатлар ҳақидаги маълумоти**

жами адвокат- лик тузилмалар и	Шу жумладан			жами адвокатлар сони	шундан	
	хайъат лар	фирма лар	бюро лар		аёллар	эркаклар
2336	73	435	1828	4577	899	3678

**Ўзбекистон Республикаси Адвокатлар палатасининг 2025 йил 1 январь ҳолатига
кўра адвокатлик тузилмалари ва адвокатлар ҳақидаги маълумоти**

жами адвокат- лик тузилмала ри	Шу жумладан			жами адвокатла р сони	шундан	
	хайъа тлар	фирм алар	бюро лар		аёлла р	эркаклар
3429	75	478	2876	6017	946	5071

Ushbu strategik maqsadning amaliy ifodasi sifatida, strategiya qabul qilingan davrdan buyon advokatlar soni shiddatli ravishda o‘shib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, advokatlar soni 4577 nafar bo‘lsa, 2025-yil 1-yanvar holatida esa 6017 nafar advokatni ko‘rishimiz mumkin. Statistika tahliliga ko‘ra, o‘tgan qisqa vaqt ichida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan advokatlar safi qariyb 1500 nafarga kengaydi. Bu o‘shish sur‘ati Konstitutsiyadagi huquqiy kafolatlar va Strategiya dagi amaliy mexanizmlarning



o‘zaro bog‘liq ishlayotganidan dalolat beruvchi muhim omil hisoblanadi. Advokatlar sonining ko‘payishi sud jarayonlarida tortishuv tamoyilini kuchaytirishga va fuqarolarning himoyalani sh huquqini to‘laqonli ta‘minlashga xizmat qiladi.

Qolaversa, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan iqtisodiy farovonlikka erishish jarayoni bugun aniq raqamlarda o‘z aksini topmoqda.

Xususan, Milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida O‘zbekistonning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi joriy narxlarda 1 303 702,1 mlrd so‘mni tashkil etganligi diqqatga sazovordir. Ushbu ko‘rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 7,6 foizga o‘sganini ko‘rsatadi.⁴

Xulosa qilib aytganda, yangilangan Konstitutsiya va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining bir biriga bog‘ligi — xalqimizning tinch, erkin va farovon hayot kechirishi uchun yaratilgan eng kuchli mexanizmdir. Ushbu ikki ustuvor hujjatning amaldagi ijrosi Yangi O‘zbekistonni jahon maydonida nafaqat iqtisodiyoti rivojlangan, balki inson qadri hamma narsadan ustun turadigan qudratli davlatga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inson huquqlari. Darslik. –T.: Adolat, 1997. – B.6.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri)
3. Konstitutsiyaviy islohotlar: Yangi bosqich va yangi imkoniyatlar.
4. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
5. <https://lex.uz/ru/pdfs/-8050769>
6. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qomita-yangiliklar/51776-nodavlat-umumiy-o-rta-ta-lim-tashkilotlari-soni-so-nggi-5-yilda-202-taga-ko-paygan>
7. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/61148-oliy-talimga-qamrov-40-9-ga-oshgan>

⁴ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/64792-zbekiston-yalpi-ichki-ma-suloti-azhmi-7-6-foizga-sdi-2>



*Modern American Journal of Social Sciences
and Humanities*

ISSN (E): 3067-8153

Volume 2, Issue 4, April, 2026

Website: usajournals.org

*This work is Licensed under CC BY 4.0 a Creative Commons Attribution
4.0 International License.*

-
8. <https://www.paruz.uz/uploads/2023/02/2023-uz.pdf>
 9. <https://paruz.uz/uploads/2025/01/2025-uz.pdf>
 10. <https://lex.uz/ru/pdfs/-8050769>
 11. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
 12. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/64792-zbekiston-yalpi-ichki-ma-suloti-azhmi-7-6-foizga-sdi-2>